

**TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHDA INTERFAOL  
METODLARDAN FOYDALANISH**

***Yusufboyeva Shoxnozabonu Quvondiq qizi***  
*UrDPI Filologiya va san'at fakulteti Tasviriy san'at  
va muhandislik grafikasi yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Oliy ta'lim muassasalaridagi tasviriy san'at o'quv jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etishda interfaol metodlarning ahamiyati ham o'ziga xos hisoblanishi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** tizim, interfaol o'yinlar, tasviriy san'at, jarayon, mutaxassis, pedagog, rassom.

Ma'lumki hozirgi kunda yurtimizda bo'layotgan islohotlar, ulkan bunyodkorlik ishlari, ta'lim-tarbiya sohasiga qaratilayotgan e'tibor, mazkur sohada qabul qilinayotgan qonun va qarorlar, ishlab chiqilayotgan yangidan yangi g'oyalar, "Milliy dastur"imizda belgilab berilgan buyuk maqsadlar bugungi kun pedagoglaridan yanada ko'proq kuch-g'ayrat, shijoatni talab qilmoqda. Bugungi kunda o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalarining mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta'lim berish jarayonida samarali qo'llay olishlari, shuningdek, ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodkorlik bilan yondashishlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jumladan grafika san'atini o'qitish metodlari ham keng ko'lama rivojlanib bormoqda. Aslini olganda esa grafik tasvirga bo'lgan ehtiyoj ibtidoiy jamoa davrida paydo bo'la boshlagan. Ibtidoiy odamlarning bizgacha saqlangan mehnat qurollari va buyumlarida qo'llanilgan bezaklar hamda qoyatoshlarga o'yib ishlangan ko'plab tasvirlar bundan guvohlik beradi.

Grafika- yunoncha so'z bo'lib o'zbek tilida yozaman, chizaman degan ma'noni anglatadi. Grafika rasm va rasm san'atiga asoslangan, lekin o'z tasvir va ifoda vositalariga ega bo'lgan bosma badiiy asardir. Grafika termini dastlab xat va xattotlik san'ati ma'nosida qo'llangan. XIX asr oxiri — XX asr boshlaridan yangi ma'no kasb etdi, poligrafiya sanoatining rivoji, fotomexanikaning vujudga kelishi bilan grafika tasviriy san'at turiga aylanadi. Hozirgi kunda umumiyl o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan tasviriy san'at o'quv fani o'z mazmuniga ko'ra integrativ fan hisoblanadi. Chunki uning mazmunida tasviriy san'atdan tashqari amaliy bezak san'ati, badiiy hunarmandchilik, me'morlik va dizaynga oid o'quv materiallarini o'zlashtirish belgilab qo'yilgan. So'nggi yillarda Prezidentimiz

tomonlaridan olib borilayotgan siyosatning tub mohiyatida o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga e'tibor qaratish va sifatli kadrlar bo'lib yetishida o'quv muassalarida dars o'tish tizimini yangilash asos bo'lib xizmat qilmoqda. Yoshlarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish maqsadida Prezidentimiz tomonidan 2019-yil 19-martda 5 muhim tashabbus joriy etildi. Bularning zamirida, albatta, yosh avlodni munosib tarbiyalash maqsadi ko'zda tutilgan. Buning uchun darslarni zamon talabiga mos tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning eng ommaviylashtirilgan turlaridan biri bo'lgan interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Interfaol metodlarning afzalligi shundagi o'qituvchi va o'quvchi bирgalikda faol harakat qiladi. O'quvchilarni fikrlashga va yaratuvchanlikka undaydi. Ularni tashshabbus ko'rsatishlariga imkoniyat yaratadi. Prezidentimiz tomonlaridan joriy etilgan 5 ta muhim tashshabbusning tasviriy san'at darslarida metod sifatida qo'llanilishi dars samaradorligining oshishiga imkon yaratadi. Bu metod orqali o'quvchilarni ham rassomlikka, ham sporga, kitobxonlikka va tadbirkorlik bilan shug'ullanishga imkoniyat yaratadi.

Ta'lim tizimiga kiritilayotgan har qanday innovatsiya axborot va metodik ta'minotning mavjudligini ko'zda tutadi. Shu sababli, tasviriy san'at o'quv jarayoniga innovatsiya kiritishda ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish hamda amaliyatga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali o'quv jarayonlari mazmuni va metodlarini takomillashtirish muhim yo'nalishlardan sanaladi. Bunda badiiy ta'lim bosqichlarining o'zaro mazmunan bog'liqligi, uzviyligi va uzlusizligini ta'minlash; oliy ta'limda tasviriy san'at o'quv jarayonini tashkil etishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, bu borada o'quv uslubiy majmular sifatini ta'minlash, pedagogik texnologiyalarni joriy etishda professor-o'qituvchilarning kompyuter va Internetdan foydalanish bo'yicha savodxonligini doimiy oshirib borish; oliy ta'limning axborot resurs va zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minotini yanada rivojlantirish; tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishlarida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish oliy ta'lim muassasalarida rassom- pedagoglarining faoliyat yo'nalishlari tarkibini belgilaydi. Yuqoridaagi fikrlardan ko'rinish turibdiki oliy ta'lim tizimini xususan, tasviriy san'at ta'lim tizimini modernizatsiyalash (ingl. modern — yangilangan, zamonaviy, tekor o'sish) o'quv jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab etadi. Shunday ekan, tasviriy san'at ta'limga innovatsion (inglizcha innovation — yangilik kiritish) yondashuv g'oyasi ta'lim mazmuni va natijalarining shaxsga yo'naliganligi, ta'lim mazmuni, shakl, metod va vositalarini fan va texnikaning so'nggi yutuqlari, ilg'or tajribalar, zamonaviy metodikalar bilan uyg'unlashtirishga qaratilganligi bilan an'anaviy yondashuvdan farq qiladi. Ta'lim tizimiga kiritilayotgan har qanday

innovatsiya axborot va metodik ta'minotning mavjudligini ko'zda tutadi. Shu sababli, tasviriy san'at o'quv jarayoniga innovatsiya kiritishda ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali o'quv jarayonlari mazmuni va metodlarini takomillashtirish muhim yo'nalishlardan sanaladi. Bu esa o'z navbatida tasviriy san'at o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning samarali shakllari sifatida ma'ruza (muammoli ma'ruza, ma'ruza-seminar, virtualtexnologik ma'ruza, vizual ma'ruza, binar ma'ruza, kirish ma'ruzasi, ma'ruza-konferentsiya, axborotli ma'ruza, ma'ruza bahs-munozara, sharhlovchi ma'ruza, on-line ma'ruza) trening, videotrening, vebinarlar, internet konferentsiyalar, innovatsion o'qitish metodlari sifatida esa muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o'yinlar, o'quv loyihalari, portfoliolar, grafik organayzerlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zaruratini yuzaga chiqaradi.

O'qitishning interfaol va interaktiv usullari hayotiy vaziyatlarni modellashtirish, rolli o'yinlardan foydalanish, muammolarni hamkorlikda yechishda ko'rib chiqiladi. Interfaol va interaktiv o'qitish talabalardan axborotlarni o'zlashtirish jarayonida faollik, ijodkorlik, mustaqillikni rivojlantirbgina qolmay, ta'lim maqsadlarining to'laqonli amalga oshishiga yordam beradi. Bunda ta'limning quyidagi kontseptsiyalari fundamental asos bo'lib xizmat qiladi:

- pedagogning jadal faoliyati — o'quv faoliyatining asosiy ko'rinishi sifatida namoyon bo'lib, u mazkur harakatning sub'ekti va tashkilotchisi sifatida faoliyat ko'rsatadi;
- o'quv faoliyatining asosiy negizi va natijasi, mazkur faoliyatning sub'ekti - o'rganuvchi hisoblanadi;
- muvaffaqiyatli o'quv faoliyatining asosiy ko'rsatkichi, uning natijasi talabaning fikrlash usullarini o'rganish va amaliy masalalarni ijodiy hal etish, erkin, mustaqil harakat qila olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat;
- o'quv faoliyatning asosiy ko'rsatkichi o'quv topshiriqlari xisoblanadi. Bunda ta'lim jarayonining asosiy sub'ekti bo'lgan talabada fikrlash, bilish harakati usullarini rivojlantiruvchi o'qitish taktikasi muhim o'rinn tutadi;
- o'quv faoliyatini amalga oshirish jarayoni talabidan o'zining shaxsiy bilish mahorati va ko'nikmalarini o'zlashtirib olishi uchun zamin hozirlashdan iborat.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. M.Mirsolieva., G.Ibragimova — Ta'lim texnologiyalari va pedagogik mahorat.
2. Tolipov O'. Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Toshkent "Fan" 2005
3. 3. Abdullayev N. San'at tarixi 2-jildlik, 2/1 tom.-T., 2001
4. .R.Xasanov, Tasviriy san'at asoslari — T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot